

Sog'liqni saqlash vazirining
2023-yil "15" sentyabrdagi
230.-son buyrug'iga
6-ilova

**Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi
ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Qashqadaryo viloyati filialining
USTAVI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Ustav Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Qashqadaryo viloyati filialining (keyingi o'rinlarda Filial deb ataladi) faoliyatini tashkil etish va moliyalashtirish tartibini belgilaydi.

2. Filial O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 8-sentyabrdagi PQ-296-son qaroriga muvofiq hududiy perinatal, aholi reproduktiv salomatligi hamda "Ona va bola skrining" markazlari negizida Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining (keyingi o'rinlarda Markaz deb ataladi) hududiy filiali etib tashkil etilgan.

3. Filial O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va blankalarga, mustaqil balansga, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g'aznachiligida shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga, bank hisobvaraqlariga, shu jumladan, xorijiy valyutadagi shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga ega bo'ladi.

4. Filial aholiga yuqori malakali ixtisoslashtirilgan perinatal xizmatni amalga oshirish, akusherlik va ginekologiya yordamini ko'rsatish, reproduktiv salomatlikni shakllantirish, sog'lom oilani rejalashtirish, faqat sog'lom farzand tug'ilishiga erishish, sog'lom homiladorlikni ta'minlash, prenatal va neonatal skrining jarayonlarini amalga oshirish, onalar go'daklar o'limini qisqartirish masalalarida faoliyat olib boruvchi Markaz vazifalarini bajaradigan Markazning alohida bo'linmasi hisoblanadi.

5. Filial yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatadi, shuningdek mutaxassislik turlari bo'yicha tibbiyot kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha klinik hamda o'quv bazasi hisoblanadi.

6. Filial o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga,



O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining buyruqlariga, Markaz direktori buyruqlariga, ushbu Ustavga va boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

7. Filialning to'liq va qisqartirilgan nomi:

a) davlat tilida:

to'liq nomi – **“Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi” davlat muassasasining Qashqadaryo viloyati filiali;**

qisqartirilgan nomi – **“RIOvBSIATM” DM Qashqadaryo viloyati filiali;**

b) rus tilida:

to'liq nomi - **Филиал государственного учреждения “Республиканский специализированный научно-практический медицинский центр здоровья матери и ребёнка” Кашкадарьинской области;**

qisqartirilgan nomi – **Филиал ГУ “РСНПМЦЗМиР” Кашкадарьинской области;**

v) ingliz tilida:

to'liq nomi – **Branch of the state institution “Republican Specialized Scientific and Practical Medical Center for Maternal and Child Health” of Kashkadarya region;**

qisqartirilgan nomi – **Branch of the SI “RSSPMCMChH” of Kashkadarya region.**

8. Markazning joylashgan joyi (pochta manzili:) Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahar, Amir Temur ko'chasi, 40-uy, indeks: 180100.

9. Filial O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Qashqadaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasiga bo'ysunadi. Shu bilan birga, Markaz Filialga uslubiy jihatdan rahbarlik qiladi.

2-bob. Filialning asosiy maqsadi, vazifalari va funksiyalari

10. Quyidagilar Filialni tashkil etish va uning faoliyati maqsadlari hisoblanadi:

yuqori malakali va yuqori sifatli hamda hozirgi zamon xalqaro talablariga mos keladigan ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishga mo'ljallangan yuqori texnologik moddiy va ilmiy bazani, shuningdek ushbu yo'nalishdagi maktabni shakllantirish;

o'z ixtisosligi bo'yicha kasalliklarga tashxis qo'yish, ularni davolash va kasalliklarning oldini olishda aholining yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamga bo'lgan talabini qondirish.

11. Quyidagilar Filialning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) quyidagi aholiga o'z ixtisosligi bo'yicha yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish:

ro'yxati qonunchilik hujjatlari asosida aniqlanadigan imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga bepul asosda;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga (bundan ushbu kichik bandning ikkinchi xatboshida ko'rsatilgan shaxslar mustasno), shuningdek chet ellik fuqarolarga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga pulli asosda;

b) mavjud tibbiyot texnikalari parkining doimiy ravishda yangilab borilishini va modernizatsiya qilinishini ta'minlash, Filialni o'z ixtisosligi bo'yicha hozirgi zamon xalqaro talablariga mos keladigan yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish imkonini beradigan zamonaviy tibbiyot asbob-uskunalarini bilan jihozlash;

v) Filial faoliyatini ta'minlash uchun moliyaviy va moddiy-texnik resurslarni jalb qilish bo'yicha menejment hamda marketing ishlarini tashkil etish;

g) Filial tibbiyot xodimlarining kasbiy darajasini, shu jumladan mutaxassislarning xorijiy yetakchi tibbiyot ta'limi muassasalarida va klinikalarida o'z ixtisosligi bo'yicha kasalliklarga tashxis qo'yish va ularni davolashning zamonaviy usullari bo'yicha stajirovkalarini tashkil etish hisobiga doimiy ravishda oshirib borish va takomillashtirish;

d) o'z ixtisosligi bo'yicha kasalliklarning oldini olish, ularga tashxis qo'yish va kasalliklarni davolash bo'yicha o'z ilg'or usullarini va texnologiyalarini ishlab chiqishga hamda tibbiy amaliyotga joriy etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish;

e) o'z ixtisosligi bo'yicha kasalliklarni davolash va ularga tashxis qo'yishning patentlangan o'z usullari va texnologiyalarini doimiy ravishda takomillashtirib borish hamda ularning xalqaro miqyosda e'tirof etilishiga erishish;

j) o'z ixtisosligi bo'yicha respublika maqsadli dasturlarini ishlab chiqishda va amalga oshirishda faol ishtirok etish;

z) o'z ixtisosligi bo'yicha xorijiy yetakchi tibbiyot muassasalari bilan xalqaro hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash, to'plangan tajriba, axborotlar, shuningdek mutaxassislar keng almashinuvini ta'minlash;

i) hududiy ixtisoslashtirilgan tibbiyot tashkilotlariga tashkiliy-uslubiy rahbarlik qilish, ularning amaliyotiga tibbiy yordamning zamonaviy usullari va texnologiyalarini joriy etish, mintaqalarda zarur profilaktik ishlar o'tkazishda ko'maklashish, sayyor konsultasiyalar, mahorat darslarini muntazam ravishda o'tkazib borish.

12. Filial o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni bajaradi:



o'z ixtisosligi bo'yicha hozirgi zamon xalqaro talablari darajasida kasalliklarga tashxis qo'yish, ularni davolash va oldini olishning eng samarali, murakkab va yuqori texnologik usullariga bo'lgan respublika aholisining ehtiyojini qondiradi;

o'z ixtisosligi bo'yicha keng tarqalgan kasalliklarga tashxis qo'yish, ularni davolash va oldini olishning ilg'or samarali usullari hamda texnologiyalarini ishlab chiqadi va joriy etadi;

o'z ixtisosligi bo'yicha o'zining yuqori malakali mutaxassislar maktabini shakllantiradi va rivojlantiradi;

Filial ixtisosligi bo'yicha tibbiyot sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va Markazga kiritadi;

dori vositalarini, tibbiyot buyumlarini, shuningdek o'z ixtisosligi bo'yicha tashxis qo'yish va davolash usullarini klinik sinovdan o'tkazadi;

xorijdagi tibbiyot hamjamiyatiga o'zining ilmiy va texnologik yutuqlarini taqdim etadi;

o'z ixtisosligi bo'yicha o'zining ilmiy, o'quv-uslubiy va axborot-ma'lumotnoma materiallarini chop etadi;

Filialning tibbiyot kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, chet mamlakatlarning shu yo'nalishdagi tibbiyot muassasalari ishtirokida qo'shma ilmiy-amaliy tadqiqotlar o'tkazish uchun yuqori malakali chet ellik mutaxassislarni jalb qiladi;

amaliy ko'nikmalarni mustahkamlagan holda nazariy bilimlarni o'zlashtirish asosida tibbiyot ta'lim muassasalarida shu yo'nalishdagi mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim sifatini oshirishga faol ko'maklashadi.

3-bob. Filialning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi

13. Filial quyidagi huquqlarga ega:

vakolatiga kiradigan masalalar hamda unga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan buyruqlar qabul qilish;

qonunchilik hujjatlarida belgilangan doirada o'ziga berilgan davlat mulkidan foydalanish va uni tasarruf etish;

davlat organlari va manfaatdor shaxslardan o'z vakolati doirasida zarur axborotlarni so'rash va olish;

14. Filial:

yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamga muhtoj bo'lgan kasallarga tashxis qo'yish va ularni davolash sifati hamda standartlarining hozirgi zamon xalqaro talablari darajasida saqlanishini va rivojlantirilishini ta'minlashi;

o'z ixtisosligi bo'yicha quyidagilarga yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishi;

ro'yxati qonunchilik hujjatlari asosida aniqlanadigan imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga bepul asosda;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga (bundan ushbu bandning to'rtinchi xatboshida ko'rsatilgan shaxslar mustasno), shuningdek chet ellik fuqarolarga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga pulli asosda;

o'z ixtisosligi bo'yicha oldini olish, tashxis qo'yish va davolashning yangi texnologiyalarini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning yuksak darajada o'tkazilishini ta'minlashi;

Filial xodimlariga qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan mehnatni tashkil etish sharoitlarini yaratishi va mehnatiga haq to'lashi, xavfsizlik texnikasi taqdim etish, ularni ijtimoiy jihatdan ta'minlashi va maqsadli ijtimoiy himoya qilishi;

Filialning moddiy-texnik bazasini o'z mablag'lari va jalb etiladigan mablag'lar hisobidan rivojlantirishi hamda zamonaviy tibbiyot texnikasi va texnologiyalari bilan mustahkamlashi;

o'ziga yuklangan vazifa va funksiyalarni samarali bajarishi;

faoliyatini rivojlantirish bo'yicha tasdiqlangan dasturlar, chora-tadbirlar rejasi, "yo'l xaritalari" va boshqa dasturiy hujjatlar ijrosini samarali tashkil etishi va bajarishi;

o'ziga biriktirib berilgan mulklar, shu jumladan, ko'chmas mulklardan maqsadli foydalanishi;

o'ziga yuklangan vazifa va funksiyalar doirasida fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi shart.

Filialga qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

15. Filial davlat aktivlarini, shu jumladan, ularning tovar-moddiy boyliklari va boshqa mol-mulklarining but saqlanishi bo'yicha moddiy javobgar hisoblanadi.

4-bob. Filialning mol-mulki

16. Asosiy fondlar, shuningdek boshqa moddiy boyliklar va moliyaviy resurslar Filialning mol-mulkini tashkil etadi.

17. Filial doimiy foydalanish huquqlari asosida yer uchastkasiga egalik qiladi, qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda o'z faoliyatining maqsadlariga, mulkdorning topshiriqlariga va mol-mulkning maqsadiga muvofiq o'ziga biriktirilgan mol-mulkka egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi, bunda byudjet mablag'lari va byudjetdan tashqari mablag'lardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

18. Filial qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni shartnoma asosida ijaraga berish, tushgan mablag'larni Filialni moddiy-texnik rivojlantirish uchun ishlatish, shuningdek asbob-uskunalar va mol-mulkni qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda balansdan chiqarish huquqiga ega.

5-bob. Filialni boshqarish

19. Filialning joriy faoliyatiga rahbarlikni Markaz direktori tomonidan sog'liqni saqlash vaziri bilan kelishgan holda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan hamda uning ishonchnomasi asosida faoliyat ko'rsatadigan direktor amalga oshiradi.

Qonunchilik hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, Filial direktori bilan tuzilgan mehnat shartnomasi to'xtatilgan taqdirda, ishonchnoma Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan bekor qilinadi.

20. Filial direktori:

Filial nomidan o'z faoliyatini olib boradi, Filialning moliya-xo'jalik faoliyatiga rahbarlik qiladi, Filial nomidan shartnomalar tuzadi, Filial faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa masalalarni hal qiladi;

Filial xodimlari ishlarini o'z vakolatlari doirasida tashkil etadi va boshqaradi, Filial xodimlari tomonidan bajarilishi shart bo'lgan buyruqlar chiqaradi, Filial xodimlarini qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishga qabul qiladi va ishdan bo'shatadi;

Filial faoliyati uchun javob beradi.

21. Filial direktori o'rinbosarlari Markaz direktori tomonidan Filial direktorining taqdimnomasiga binoan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

22. Markaz Filialga uslubiy rahbarlik qiladi.

6-bob. Hududiy filial faoliyatini moliyalashtirish

23. Filialni moliyalashtirish davlat byudjeti mablag'lari, byudjetdan tashqari va qonunchilik hujjatlariga zid bo'lmagan tartibda jalb etilgan boshqa mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi.

24. Davlat mablag'lari quyidagi maqsadlar uchun foydalaniladi:

Filial faoliyati konsultativ va o'quv faoliyati xarajatlarini qoplash uchun;

Filialning zamonaviy tibbiy va zarur texnik asbob-uskunalar bilan ta'minlash uchun.

25. Filial ajratilgan byudjet mablag‘lari va o‘z daromadlari doirasida mustaqil ravishda Filialning daromadlar va xarajatlar smetasini ishlab chiqadi va hududiy sog‘liqni saqlash boshqaruv organi bilan kelishilgan holda tasdiqlaydi.

7-bob. Hisobga olish va hisobot

26. Filial qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritadi, ularni tegishli vakolatli organlarga taqdim etadi, hujjatlarning butligi va kelishilgan ro‘yxatga muvofiq davlatga saqlash uchun topshirilishi uchun javob beradi.

27. Filialning moliya-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish va tekshirish iqtisodiyot va moliya organlari, davlat soliq xizmati organlari, boshqa davlat organlari tomonidan ularning o‘z vakolati doirasida, shuningdek qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda auditor tashkilotlar tomonidan ular bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

8-bob. Yakunlovchi qoida

28. Filialni qayta tashkil etish va tugatish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.



Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Qashqadaryo viloyati filialining
TUZILMASI

